



“QAYTA QURISH” SIYOSATINING E’LON QILINISHI VA UNI O’ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI (1985-1991-YILLAR)

Abdullayev Muzrobjon G’ulomovich

ADU Tarix fanlari doktori, professor

Xolmirzayev Xasanboy Komiljon o’g’li

ADU Tarix yo’nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15575485>

Annotatsiya. Ushbu maqolaning maqsadi ob’ektiv, tarixiy o’tkazishdir. O’zbekistonda kechayotgan jarayonlarni qiyoslab qarash, ilmiy tahlil qilish “qayta qurish davri” deb atalgan qisqa tarixiy vaqt, shuningdek, bu yillarning hali o’rganilmagan ayrim voqealarini asoslash va natijalarini ilmiy muomalaga kiritish. Ishda tahlil va sintez, tarixiy taqqoslash, statistik va empirik bilim kabi usullardan foydalaniladi.

Ushbu maqolada keltirilgan ilmiy asoslar va mulohazalar muhim ahamiyatga ega manbashunoslikning nazariy va amaliy jihatdan tarix fanini o’rganishdagi ahamiyati O’zbekistonning mustaqillik davri va bu yillardagi murakkab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar sotsialistik tarixchilar, talabalar va keng jamoatchilik tomonidan izohlanadi.

Kalit so’zlar. “Qayta qurish davri”, SSSR, KPSS, markaziy komiteti, kompartiya, Navro’z, ob’ektiv, tarixiy, tahlil, sintez, statistik, empirik.

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o’rni va roli alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, ajdodlarimizdan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg’or davlatlar darajasiga ko’tarish yoshlarning bilimi, iste’dodi, jasorati, ma’naviy barkamolligiga bog’liq.

Yangi O’zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida xalqimizning hayoti, davlatimizning siyosiy faoliyatida tub o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O’zbekistonda xalqimiz o’zining buyuk kelajagini yaratmoqda. Uni yaratishda ulug’ ajdodlarimiz, buyuk sharq mutafakkirlari, din arboblari, mutasavvif donishmandlar, ulug’ allomalarning ta’limotlarini o’rganish sari yo’l ochildi. Asrlar mobaynida xalqimiz saqlab kelayotgan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ilmiy tadqiq qilib rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratildi.

Adabiyotlar tahlili. 1985-1989 yillar nisbatan qisqa davr bo’lishiga qaramay, ular O’zbekiston tarixida muhim o’rin tutadi va maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borish. Bu o’ziga xoslik bilan bog’liq “Qayta qurish davri” deb atalgan ushbu bosqichning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlari nafaqat O’zbekiston tarixida, balki jahon tarixida ham. Uning yana bir o’ziga xos





xususiyati shundaki shu yillarda ro'y bergan muhim siyosiy o'zgarishlar qisqa vaqtdan so'ng dunyo siyosiy xaritasida global o'zgarishlarga sabab bo'ldi

Uzoq vaqt davomida tarixchilar va mutaxassislar ijtimoiy-gumanitar sohaning boshqa tarmoqlari "qayta qurish davri"ga bir tomonlama baho berdi, garchi aslida bu yillar o'ziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Bugun esa ularni xolis tahlil qilish vaqti keldi, ular uchun qulay shart-sharoit mavjud.


Sovet jamiyatida boshlangan ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishning mohiyatini belgilab bergan islohotlar o'n yillar davomida yetilib keldi. Bu islohotlarning zaruriyligi XX asrning 60 - 70 - yillarida jahonda, aniqroq aytganda, rivojlangan mamlakatlarda yuz bergan chuqur texnologik o'zgarishlar, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqich – postindustrial jamiyatga o'tish bilan belgilangan edi.

Ko'pgina omillar 1985 - yil arafasiga kelganda SSSR ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy jihatdan chuqur tushkunlikni boshdan kechirayotgani, real sosializm amalga oshmaganidan dalolat berar edi. Sovet jamiyatida turmush darajasi va sifati, uning davomiyligi, kishilarning o'rtacha umr kechirish darajasi, xususan, bolalar o'limi, aholini keng iste'mol mollari va xizmatlari bilan ta'minlash ko'rsatkichlari bo'yicha SSSR nafaqat rivojlangan davlatlardan, balki taraqqiyoti o'rtacha darajadagi mamlakatlardan ham ancha orqada qolib ketdi.

Sovet jamiyatidagi ta'lim, ish malakasi, ijro intizomi yuqori industrial jamiyat va zamonaviy texnologiyalarga qo'yilgan talablarga javob bermas edi. Bu davrga kelib sosializmning barcha jihatlarini, uning iqtisodiy asoslarini, ijtimoiy hayotini, siyosiy tuzumini, ma'naviy sohasini yangilashning qat'iy zaruriyati sezila boshladi. Ammo yangilanish jarayonining yo'llari, shakllari va mohiyati darrov anglab olinmadi. Ko'p narsalarni sovet jamiyati taraqqiyotining "qayta qurish" deb nom olgan tarixiy bosqichi jarayonida aniqlash, tuzatish va qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keldi.

Sovet jamiyatini qamrab olgan qayta qurish davrini quyidagi 2 bosqichga ajratish mumkin. Qayta qurishning birinchi bosqichi (1985 – 1986-yillar) ma'muriy – tashkiliy tadbirlarning an'anaviy usullarda olib borilishi bilan izohlanadi. Mazkur bosqichda ilmiy – texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish asosida jamiyatda tub iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va uning asosida inson omilini faollashtirish mo'ljallangan edi.

Bu paytda SSSRning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston SSR ham mamlakatdagi qayta qurish jarayonlariga tortildi, uning qonuniyatlariga amal qildi.





Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, fan – texnika taraqqiyotini jadallashtirishga qaratildi. Shuning uchun ham 1986 - yil 1 - mart kuni KPSS XXVII s'yezdining KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy dokladi yuzasidan qabul qilgan rezolyusiyasida fan – texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalalariga maxsus e'tibor qaratilgan edi. O'sha davr ruhini ko'rsatish va kayfiyatini bilish uchun hujjatdan parcha keltiramiz: "Partiya

fan – texnika taraqqiyotini tubdan jadallashtirishni, texnikaning eng yuqori unumdorlikni va samaradorlikni ta'minlovchi yangi turkumlarini, prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarni keng joriy etish vazifasini xalq xo'jaligini intensivlashning asosiy vositasi sifatida oldinga suradi. S'yezd fan va texnikaning eng zamonaviy yutuqlari negizida xalq xo'jaligini texnik jihatdan chuqur rekonstruksiyalashni amalga oshirishni birinchi darajali vazifa sifatida o'rtaga qo'ydi. Har bir tarmoq, korxona va birlashma ishlab chiqarishni muttasil yangilab turishning aniq programmasiga ega bo'lishi kerak. Ishning mohiyatini yuzaki tadbirlar o'tkazish bilan, yarim – yorti qarorlar qabul qilish bilan almashtiradigan, texnikaviy rekonstruksiya g'oyasining o'zini buzadigan rahbarlardan qat'iy mas'uliyat talab qilish darkor".

Qayta qurishning dastlabki davrlarida asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratildi. Ammo bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amalga oshirish mumkin emasligi tezda ayon bo'lib qoldi. Shuning uchun 1986 - yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lindi. Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish, ma'muriy – buyruqbozlik va byurokratizmga,

qonunsizlikka qarshi kurash turar edi.

Bu davrda butun Sovet Ittifoqida bo'lgani singari O'zbekistonda ham dastlab

ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ma'lum o'zgarishlar yuz bera boshladi, kishilarning ijtimoiy faolligi oshdi, demokratiya sari ayrim qadamlar tashlandi, milliy o'zlikni anglash jarayoni boshlandi. Ammo tub o'zgarishlar va barcha sohalarda haqiqiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi urinishlar muvaffaqiyat qozonmadi. Statistika ko'rsatkichlarda qayd etilishicha, 1986 - yildan boshlab mamlakat iqtisodiy ahvoli yanada yomonlasha boshladi, 1987 - yil yanvardan ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari pasaya bordi, iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga eldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi shu tarzda kutilgan natijani bermadi.





Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987 – 1989 - yillar) jamiyatning barcha jabhalarini kompleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa kommunistik mafkura tomonidan 1987 - yil yanvarda yanada aniqlashtirildi. Moskva shahrida 1987 - yil 27 – 28 yanvarda bo'lib o'tgan KPSS MKning Plenumida M.S.Gorbachyov "Qayta qurish va partiyaning kadrlar siyosati to'g'risida" ma'ruza qildi. Unda siyosiy islohotlarning asosiy maqsadi oshkoralik va kadrlar siyosatini to'g'ri yuritish asosida sovet jamiyatini to'liq demokratlashtirishga e'tibor qaratildi. Keyinchalik M.S.Gorbachyov o'zining qayta

qurish haqidagi mashhur kitobida bu g'oyalarini davom ettirdi.

Qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma – xilligining ma'lum ma'noda kuchayishiga imkoniyat yaratdi. Ammo mamlakatda tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazish mumkin bo'lmadi. Zo'rayib borayotgan iqtisodiy tanglik, siyosiy boshboshdoqlik ijtimoiy adolatga siyosiy yo'l bilan erishish mumkinligiga ishonchsizlik uyg'otdi.

Sovet jamiyatida qayta qurish boshlangan paytda SSSRda tanglik holati keskin kuchaydi, u mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Mustabid sovet tuzumi sharoitida davlat mulki monopoliyasi va boshqaruvida ma'muriy –taqsimlash tizimi hukmronligi tobora kuchayib bordi, natijada ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari, yalpi mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi pasayib ketdi, ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalaridan, mehnat samarasi va shu kabilardan begonalashuvi yanada ortib bordi. Xalq xo'jaligini tanazzulga olib kelgan chuqur izdan chiqish jarayonlari, xalq ijtimoiy manfaatlarining

nazar – pisand qilinmasligi kabi boshqa omillar bilan birgalikda KPSSning ulkan, biroq kutilayotgan natijalarni bermayotgan iqtisodiy siyosati butun ijtimoiy – siyosiy tizimning oqsashini oldindan belgilab berdi.

Qayta qurishning mag'lubiyati quyidagi uch sabab bilan izohlanadi. Birinchidan, qayta qurishning aniq, izchil, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan strategiya va taktikasi hamda yagona dasturi yo'q edi. Ikkinchidan, kommunistik partiya rahbarlari (partokratiya) qayta qurish g'alabasidan manfaatdor emas edilar. Ular har qanday demokratiya va oshkoralik totalitar tuzumning kushandasi ekanligini yaxshi bilishardi. Uchinchidan, M.S.Gorbachyov g'oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkin emas edi. Sosializmga xos sinfiy munosabatlar, davlat mulkchiligi, milliy va ijtimoiy sohadagi siyosat, yakkapartiyaviy rahbarlik, kommunistik mafkura, ma'muriy – buyruqbozlik tizimi umuman demokratiya bilan kelisha olmas edi.





Shuningdek, qayta qurish oshkoralik, demokratiya va fikrlar xilma – xilligining ma’lum ma’noda kuchayishiga imkon yaratdi. Aynan shu yillar odamlarning ijtimoiy faolligi oshib, turli partiyalar va norasmiy uyushmalar ham tashkil qilindi. Biroq bunday jarayonlarni madaniy shaklda xalqaro andozalar asosida olib borish imkoni bo’lmadi. Buning ustiga Ittifoqqa nisbatan O’zbekistonda respublika rahbariyati demokratiya va oshkoralikning kuchayishiga turli to’siqlar qo’ydi. Bunga ko’proq kommunistik mafkuraning yakkahokimligi, ma’muriy – buyruqbozlik tizimi asoratlari ta’sir qilar edi. Natijada tom ma’nodagi oshkoralikka erishib bo’lmadi, demokratiya esa amalda navbatdagi siyosiy o’yinlar ko’rinishini oldi. Fikrlar xilma – xilligining turli ko’rinishlari esa yuqorining siyosiy va g’oyaviy masalalarda hurfikrlilik va demokratiyani ta’qib etishi asnosida yuz berdi.

Ana shunday sharoitda O’zbekistonning o’sha paytdagi siyosiy rahbariyati Markaz oldida o’zining uquvsizligini ko’rsatdi. O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti rahbariyati Markazdan qochish va uni inkor etish siyosati o’rniga ko’proq unga yaqinlashish va mustahkam birlashish yo’lini tanladi. O’zbekistonning siyosiy rahbariyati Markaz vazifalarini tezroq uddalash, respublikaning Ittifoqqa boqimanda ekanligi to’g’risidagi soxta fikrlarni tasdiqlashdan va takrorlashdan nariga o’tmadi. Ijtimoiy va ma’naviy sohada esa milliylikning har bir ko’rinishi internasionalizm mohiyatiga yot ekanligini isbotlashga harakat qilindi. Bu narsa o’zbek tilining maqomi, islom dini, milliy urf – odatlar, an’analar va diniy marosimlar, xususan, Navro’z bayramiga munosabatda yaqqol ko’rindi.

Bu paytda O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ideologiya masalalari bo’yicha sekretari bo’lib turgan Ra’no Abdullayeva hamda 1985 - yili Toshkentga 15 yillik tanaffusdan keyin O’zbekiston SSR Tashqi ishlar ministri lavozimida qaytgan Rafiq Nishonov Markaz topshiriqlarining asosiy ijrochilari bo’lgan. Rafiq Nishonovich Nishonov 1986 – 1988 - yillarda O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi, 1988 - yil 12 - yanvardan O’zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari kabi mas’ul lavozimlarda faoliyat ko’rsatdi. Keyinchalik SSSR tarqalgach, R.Abdullayeva va R.Nishonov Toshkent va Moskvada yashab, xotiralar yozish bilan shug’ullanishdi hamda o’z esdaliklarida Sovet Ittifoqi va KPSS yemirilganligidan tashvishlanganliklarini oshkora bayon etishdi.

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov keyinchalik yozgan “O’zbekiston – bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li”






(1993 - yil avgust) asarida sovet jamiyatida amalga oshirilgan qayta qurish siyosati va islohotlarning samara bermagani to'g'risida quyidagicha batafsil to'xtab o'tgan edi: "Konservativ ma'muriy tizim, iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlik va uning haddan tashqari mafkuralashtirilganligi doirasida keyinchalik iqtisodiyotni isloh qilish yo'lidagi boshqa urinishlar ham (1979 - yilgi rejalashtirish tizimini isloh qilish, 1987 - yilgi xo'jalik mexanizmini isloh qilish va boshqalar) kam samara berdi. Ayniqsa, so'nggi o'n yillar mobaynida soxta obro' orttirish maqsadida qabul qilingan va mavjud imkoniyatlarni hisobga olmagan ijtimoiy, oziq - ovqat, agrar, energetika, ekonomika va boshqa sohalardagi ko'pgina dasturlar iqtisodiy

qarama - qarshiliklarni chuqurlashtirib yubordi. Natijada iqtisodiyotni batamom izdan chiqarib, moddiy va moliyaviy mablag'lar taqchilligining dahshatli tarzda o'sishiga, tashqi qarzning ko'payishiga olib keldi. Tayyorga ayyorlik, boqimandalik kayfiyatlarini keltirib chiqardi. Markazdan boshqarishning amaldagi tizimi, uning idoralari xo'jalik yuritish uslub va usullari iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga turtki bo'lishiga, keskin ijtimoiy muammolarni hal qilishga qodir emasligi yaqqol ayon bo'lib qoldi.

Tarixdan ma'lumki, asrlar davomida o'zbek xalqi islom diniga e'tiqod qilgan. Sovet rejimi va kommunistik mafkura o'zining hukmronlik yillarida dinga, xususan, islom diniga qarshi kurashda katta natijalarga erishgan bo'lsa ham, xalqimiz o'zining diniy e'tiqodini saqlab qoldi. 1985 - 1986 yillardan boshlab O'zbekistonda "islom dini qoldiqlari" va boshqa diniy marosimlarga qarshi ommaviy kurash e'lon qilindi. Bu ishning boshida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti ideologiya masalalari bo'yicha sekretari Ra'no Abdullayeva turdi. Markazning bevosita madadiga tayangan bu mafkura xonimi nafaqat islom diniga, balki Navro'zga qarshi ham "kommunistik urush" e'lon qildi.

XX asrning 80 - yillari boshlari va o'rtalarida SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Diniy ishlar bo'yicha qo'mitaning qarori asosida islom dinini nazorat qilish bo'yicha belgilangan tadbirlardan kelib chiqib, O'zbekiston SSR partiya va hukumat idoralarida dindorlar va diniy muassasalar o'z faoliyatida hukumat qabul qilgan qonunlarga qanchalik rioya qilinishini nazorat qiluvchi komissiyalarning faoliyatini yanada kuchaytirish talablari belgilandi. Unga ko'ra komissiyalar o'z faoliyatida kommunistik mafkura g'oyalariga, ya'ni dinga qarshi ayovsiz kurashda ateizmga qat'iy rioya qilishlari shart edi.

Natijada O'zbekistonda tarkibiga jami 6500 kishini birlashtirgan 587 ta ana shunday komissiya ish olib bordi. Har bir viloyatda tashkil etilgan doimiy





komissiyalar tarkibiga jamoat tashkilotlari vakillari muntazam ravishda jalb qilindi. Masalan, bu paytda Farg'ona viloyatida 150 ta, Qashqadaryo viloyatida 137 ta, Surxondaryo viloyatida 60 ta, Toshkent viloyatida 23 ta, Buxoro viloyatida 20 ta, Qoraqalpog'iston ASSRda 24 ta ana shunday komissiyalar tashkil etildi.

1985 - yil 25 - iyulda O'zbekistonda xotira kuni belgilanib, u har yili mart oyining so'nggi yakshanbasida nishonlanadigan bo'ldi. Shuningdek, sun'iy ravishda "Navbahor" bayrami o'ylab topildi. O'zbekistonda birinchi marta

1986 - yil 30 - martda Xotira kuni o'tkazildi.

Sovet rejimi va kommunistik partiyaning tazyiqi bilan mashhur shoirlar "Navbahor" bayramiga atab maxsus she'rlar yozdilar. 1986 - yil bahorida O'zbekistonda Navro'z bayramini o'tkazish taqiqlandi. Shahar va qishloqlarda Navro'z bayramini o'tkazishga uringan oddiy aholi kuch ishlatish organlari tomonidan qattiq jazoga tortildi.

Keyinchalik O'zbekistonda Navro'z nishonlanadigan 21 - martdan

21 - aprelgacha bo'lgan kunlar O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti tomonidan "Insoniylik va tabiatni e'zozlash oyligi" deb e'lon qilindi. Shu muddat ichida Xotira kuni, Birinchi pushta, Birinchi ekin, Don, maysa va suv kuni, bolalar uchun Boychechak bayrami va boshqa sun'iy ravishda o'ylab topilgan marosimlarni o'tkazish belgilandi.

Xullasa. Qayta qurish SSSRda to'planib qolgan muammolarni to'la hal etishga xizmat qilmadi. Mustaqillik, demokratiya va erkinlik g'oyalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli ham amaliy samara bermadi. Natijada u KPSSning halokati va SSSRning tugashiga muayyan turtki berdi. Biroq qayta qurish O'zbekiston SSRdagi yangi siyosiy va mafkuraviy vaziyatning shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Bu holat, xususan, 1989 yilda O'zbekiston siyosiy rahbariyatiga yangi shaxslar kelgach, o'z samarasini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Р. (2009). Преодоление ада. Составители: Ф.Мамаджонова, Г. Резниченко. – Москва.
2. Абдуллаева Р. (2002). XX век и развал великой державы – СССР. – Москва: Вернисаж.
3. Алимов И., Ражабов Қ. (2006). Ўзбекистон мустақиллик йўлида (1985 – 1991 йиллар) // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. Ўзбекистон Республикаси. –Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти.
4. Горбачёв М.С. (1988). Қайта қуриш ва янгича фикрлаш мамлакатимиз ва бутун дунё учун. –Тошкент: Ўзбекистон.





5. . Горбачёв М.С. (1988). Танланган нутқлар ва мақолалар. Том 2. – Тошкент: Ўзбекистон.
6. . Деревья зеленеют до метелей. Рафик Нишанов рассказывает Марине Заваде и Юрию Куликову. (2012). – Москва: Молодая гвардия. 31
7. . Каримов И. (2011). Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Тошкент, Ўзбекистон.
8. 8. Каримов И. (1996). Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. –Тошкент: Ўзбекистон.
9. . КПСС қайта қуриш тўғрисида. Хужжатлар тўплами. (1990). – Тошкент: Ўзбекистон.

